



Vebsayt: <https://involta.uz/>

YOSHLARNING IJTIMOYIY-MA'NAVIY QIYOFASINI SHAKLLANTIRISHDA XORAZM VILOYATI TAJRIBASI

Madrimov Ixtiyor Baxtiyor o'g'li

Urganch davlat universiteti, Tarix fakulteti talabalasi

ixtiyor_madrimov94@mail.ru

Annotatsiya: Mazkur maqolada Xorazm viloyatida yoshlarning ijtimoiy-ma'naviy qiyofasidagi o'zgarishlar yuzasidan amalga oshirilgan ishlar jamoat tashkilotlarning o'zaro hamkorligi asosida yoritilgan.

Kalit so'zlar: Yoshlar, huquq, davlat siyosati, bandlik, "virusi", hunarmandchilik, qadriyatlar.

EXPERIENCE OF KHOREZM REGION IN FORMING THE SOCIAL AND SPIRITUAL APPEARANCE OF YOUTH

ANNOTATION

This article describes the work done in Khorezm region to change the socio-spiritual image of young people on the basis of cooperation between public

organizations.

Keywords: youth, law, public policy, employment, "virus", crafts, values.

ОПЫТ ХОРЕЗМСКОЙ ОБЛАСТИ В ФОРМИРОВАНИИ СОЦИАЛЬНОГО И ДУХОВНОГО ОБРАЗА МОЛОДЕЖИ

АННОТАЦИЯ

В данной статье описывается работа, проводимая в Хорезмской области по изменению социально-духовного облика молодежи на основе сотрудничества общественных организаций.

Ключевые слова: молодежь, право, государственная политика, занятость, «вирус», ремесла, ценности.

Kirish. Mamlakatimiz mustaqilligining ilk kunlaridan boshlab, yoshlar va ularning kelajagi haqida g'amxo'rlik qilish masalalariga ustuvor darajada e'tibor qaratila boshlandi. Zero, jamiyatimizni demokratlashtirish fuqarolik jamiyatini rivojlantirish maqsadlari zaminida aslida inson manfaatlari, yurtimizning, taraqqiyotimizning tayanchi va suyanchi bo'lgan yoshlar turadi. Ma'lumki, demokratik davlatda yoshlar o'zining haq-huquqlari va ehtiyojlarini aniq maqsadga yo'naltirilgan davlat siyosati orqaligina ro'yobga chiqara oladilar. Demak, yoshlar jamiyatning kelajagini ta'minlovchi ijtimoiy qatlamga aylanishi uchun bevosita davlatning alohida g'amxo'rliciga muhtojdir. Bizning mamlakatimizda masalaning bu tomoniga har doim ham jiddiy e'tibor qaratib kelinmoqda. Yoshlarga oid davlat siyosatining takomillashuvi va qamrovini uning nihoyatda kengayib borayotganligida kuzatish mumkin. Fikrimizni yanada yorqinroq ifodalaydigan bo'lsak, yurtimizda yoshlar manfaatlarini ro'yobga chiqarish umummilliy davlat siyosatining bosh markaziga aylandi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev Oliy Majlisga Murojaatnomasida "Yoshlar haqida gap ketganda, men doim bir narsani o'ylayman. Mana, bugungi kunda qancha-qancha yoshlarimiz chet ellarda ta'lim olmoqda, mehnat qilmoqda. Albatta,

ularning orasida o'z yo'lini topib, begona yurtda hech kimdan kam bo'lmay yashayotganlari ham ko'p. Lekin Vatan sog'inchi har qanday odamni ham qiynaydi. Shuning uchun ular bilan doimiy aloqa o'rnatish, ularning huquq va manfaatlarini himoya qilish, yurtimizga qaytish istagida bo'lganlarni qo'llab-quvvatlash bo'yicha ishlarni kuchaytirishimiz zarur".¹

Adabiyotlar tahlili. O'zbekiston Respublikasi prezidenti Shavkat Mirziyoyev yoshlar va talabalar bilan Botanika bog'ida bo'lib o'tgan uchrashuvda xorijdagi o'zbek yoshlarini qaytarish uchun yangi tizim yaratilishi qayd etildi. «Yuksak bilim va malakaga ega yoshlarimizni Vatanimizga kelib ishlashi uchun barcha sharoitlarni yaratib beramiz», - dedi u. Ular rahbarlik lavozimlariga asosiy nomzod sifatida ko'riladi, uy-joy va munosib maosh bilan ta'minlanadi. «Ko'plab iqtidorli o'g'il-qizlarimiz xorijdagi nufuzli oliygohlarda o'qimoqda, ilm-fan bilan shug'ullanmoqda, yirik va yetakchi kompaniyalarda ish olib bormoqda. Biz ana shunday yuksak bilim va malakaga ega yoshlarimizni Vatanimizga kelib ishlashi uchun barcha sharoitlarni yaratib beramiz», - dedi u. Yosh kadrlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash va tarbiyalashga qaratilgan siyosatni qat'iy davom ettirilishi ta'kidlandi.²

Respublikada yoshlar siyosatiga asoslangan sa'y-harakatlar tizimi davlat va oila ustuvorligi, davlat va shaxs, davlat va fuqarolik jamiyati va uning boshqa institutlari, milliy o'zlikni anglash, milliy xavfsizlik, milliy g'oya va ta'lim-tarbiya, aholi salomatligi, xotin-qizlar, Davlat siyosatida yoshlarni boshqarishni institutsional tizimi hamda o'zaro aloqadorlik o'zgarishlari, ijtimoiy-siyosiy, huquqiy jihatlardan Davlat o'z siyosatini amalga oshirar ekan, tabiiy ravishda, yoshlar qatlamini uning tayanchi va istiqbolini belgilab beruvchi asos sifatida qabul qiladi.

Natijalar. So'nggi besh yil ichida respublika aholisining tashqi migratsion

¹ Mirziyoyev.Sh.M. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga Murojaatnomasi. // Xalq so'zi. 2018-yil 29-dekabr.

² Mirziyoyev.Sh.M. "Yoshlar kuni"ga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruzasidan // Xalq so'zi. 2021-yil 1-iyul. №138 (7918)

jarayonlarda hududlar hamda yosh kesimidagi sotsial mobilligi tahliliga ko'ra, 20 yoshdan 40 yoshga bo'lganlar orasida jami boshqa yosh kategoriyasidagi ayol migrantlarning 50%dan ko'prog'i to'g'ri kelayotganligini ko'rishimiz mumkin bo'ladi. Ma'lumki, bugun O'zbekistonda migratsiya geometrik progressiya asosida rivojlanmoqda. O'zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi bilan Koreya Respublikasining Mehnat vazirligi o'rtasida o'zaro almashuv to'g'risidagi memorandum imzolangan. Ushbu hujjatga ko'ra, O'zbekiston fuqarolari mazkur mamlakatga mehnat faoliyatini amalga oshirish uchun ketish oldidan chet ellarga ketayotgan fuqarolarni moslashtirish va o'qitish markazida o'qiydi. Bu yerda ular o'zlari boradigan mamlakat qonunchiligi, an'analari va o'zini tutish normalari asoslari haqida ma'lumotga ega bo'ladi. Boradigan mamlakat tilini so'zlashish va mehnat vazifalarini bajarish uchun yetarli darajada o'rganadi, shartnoma bo'yicha ishga joylashadigan korxonalarda texnika xavfsizligi hamda mehnatni muhofaza qilish qoidalarini o'zlashtiradi, xorijlik ish beruvchilar talablari e'tiborga olingan holda tibbiy ko'rikdan o'tadi. Bunda o'zbekistonlik mehnat migranti mazkur mamlakatga kelishi bilan hayoti va sog'lig'ini sug'urta qilish hamda boshqa sug'urta turlari bo'yicha huquqlarga ega bo'ladi. Bizning asosiy vazifamiz - yoshlarning o'z salohiyatini namoyon qilishi uchun zarur sharoitlar yaratish, zo'ravonlik g'oyasi "virusi" tarqalishining oldini olishdir. Buning uchun yosh avlodni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, uning huquq va manfaatlarini himoya qilish borasidagi ko'p tomonlama hamkorlikni rivojlantirish lozim.³

Shuningdek, bugungi kunda dolzarb masala yoshlarning bandligini ta'minlash, mehnat sharoitlarini yaxshilash, ayniqsa, qishloq joylardagi yoshlarni oilaviy va xususiy tadbirkorlikka, hunarmandchilikka keng jalb etish masalalarida har tomonlama manzilli qo'llab-quvvatlash, yosh avlodni tarbiyalashda, ayniqsa, talabalarni yuksak ma'naviyat asosida voyaga yetkazish, ta'lim-tarbiya muhiti va

³ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 72-sessiyasidagi nutqi.

undagi ma'naviyatni barqarorlashtirish bo'yicha maqsadli ishlar tashkil etilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 24 yilligiga bag'ishlangan tantanali yig'ilishdagi ma'ruzasida Prezident Shavkat Mirziyoyev: "...hozirgi vaqtda yoshlar tarbiyasi biz uchun o'z dolzarbligi va ahamiyatini hech qachon yo'qotmaydigan masala bo'lib qolmoqda. Bugungi tez o'zgarayotgan dunyo insoniyat oldida, yoshlar oldida yangi-yangi, buyuk imkoniyatlar ochmoqda. Shu bilan birga, ularni ilgari ko'rilmagan turli yovuz xavf-xatarlarga ham duchor qilmoqda. G'arazli kuchlar sodda, g'o'r bolalarni o'z ota-onasiga, o'z yurtiga qarshi qayrab, ularning hayotiga, umriga zomin bo'lmoqda. Bunday keskin va tahlikali sharoitda biz ota-onalar, ustoz-murabbiylar, jamoatchilik, mahalla-ko'y bu masalada hushyorlik va ogohlikni yanada oshirishimiz kerak. Bolalarimizni birovlarining qo'liga berib qo'ymasdan, ularni o'zimiz tarbiyalashimiz lozim», – deya ta'kidlaganlar, yosh avlod manfaatlarini ta'minlash "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi Qonun asosida davom ettirilishini qat'iy belgilab berdilar.⁴

Xulosa. XXI asrda yoshlarning tez rivojlanib borishi, ular duch keladigan qarama-qarshiliklar, shaxs bo'lib shakllanishi, ularning yangi qadriyatlarni izlashga bo'lgan ehtiyoji ko'pgina sotsiologlarning diqqatini jalb etadi. Yoshlarning o'z-o'zini yaxshi bilib olishi, fuqarolik pozitsiyasining kuchayishi, mas'uliyati va ziyolilik darajasining o'sib borishi - tarbiyaning asosiy vazifalaridan hisoblanadi. Yoshlar masalasi hamma jamiyatlarda dolzarb mazmun kasb etib kelgan. Shuning uchun bo'lsa kerak, barcha tarixiy davrlarda zamonaviy yoshlarni o'rganish va rivojlantirib borish, mazkur jamiyatning oldidagi dolzarb masalalardan sanalgan.⁵

Bugungi globalashuv jarayonida O'zbekiston yoshlari o'z fikri, o'z dunyoqarashi, o'z bilim salohiyati, eng asosiysi, xalqaro miqyosida o'z so'zi va o'z o'rniga ega shaxslar bo'lib voyaga yetmoqdalar. Darhaqiqat, bugun bizning asosiy vazifamiz yaratilib berilayotgan ulkan imkoniyatlardan unumli foydalanish hamda

⁴ Sh.Mirziyoyev. *Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik - har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak.* T. O'zbekiston. 2017 y.

⁵ Xayitov Sh.N, O'rinov.Y.M "Yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirish strategiyasi: mavjud vaziyat va rivojlantirish istiqbollari" mavzusidagi ilmiy-amaliy konferentsiyasi. –T: "Tafakkur-Bo'stoni" nashriyoti 2019 yil.

vatan taraqqiyoti yo'lida xizmat qilish asosiy vazifalaridan biriga aylanishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga Murojaatnomasi. // Xalq so'zi. 2018-yil 29-dekabr.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 72-sessiyasidagi nutqi.

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning "Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik - har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak". T. O'zbekiston. 2017 y.

4. Xayitov Sh.N, O'rinov.Y.M "Yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirish strategiyasi: mavjud vaziyat va rivojlantirish istiqbollari" mavzusidagi ilmiy-amaliy konferensiyasi. –T: "Tafakkur-Bo'stoni" nashriyoti 2019 yil.

5. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning "Yoshlar kuni"ga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruzasidan // Xalq so'zi. 2021-yil 1-iyul. №138 (7918)